

UO‘K(UDC,УДК): 82.09.

ABDURAU F FITRAT IJODIDA TIMSOL VA RAMZIYLIK³⁶**Gulimmatova Rashida Samandar qizi***Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch**davlat universiteti o‘qituvchisi**Urganch, O‘zbekiston**E-mail: gulimmatovar@mail.ru**ORCID ID: 0009-0000-4335-5125***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat ijodida timsol va ramziylik masalasi badiiy-estetik hamda g‘oyaviy jihatdan kompleks tahlil qilinadi. Fitrat jadid adabiyotining yetuk namoyandasi sifatida o‘z asarlarida ramziy obrazlar vositasida milliy uyg‘onish, istiqloq, ma‘rifatparvarlik va ijtimoiy islohot g‘oyalarini ifodalagan. Maqolada adibning “Abulfayzxon”, “Hind sayyohi qissasi”, “Shaytonning tangriga isyoni” kabi nasriy va dramatik asarlari, shuningdek, she‘riy hamda publitsistik merosidagi timsollar tizimi semantik, lingvopoetik va kontekstual tahlil asosida o‘rganiladi. Asarlarda qo‘llanilgan ramziy obrazlarning tarixiy voqelik bilan uzviy bog‘liqligi, ularning ijtimoiy-siyosiy mazmuni hamda estetik yuklamasi aniqlanadi. Xususan, “Abulfayzxon” dramasida tarixiy shaxs obrazi orqali tanazzulga yuz tutgan davlat va jamiyat timsoli yaratilgani, “Hind sayyohi qissasi”da esa sayohat motivi orqali ma‘rifiy uyg‘onish g‘oyasi ilgari surilgani tahlil qilinadi. “Munozara” asarida Sharq va G‘arb tafakkuri qarama-qarshiligi ramziy dialog vositasida ifodalanganligi asoslab beriladi. Tarixiy shaxslar, vatan, zulmat va yorug‘lik, zanjir, yo‘l hamda uyg‘onish kabi obrazlarning ramziy qatlamlari ochib beriladi. Fitrat ijodida timsol nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki mafkuraviy-estetik konsepsiyani ifodalovchi muhim g‘oyaviy mexanizm sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi. Xulosa qismida Fitratning timsol va ramzlardan foydalanishdagi o‘ziga xos badiiy yondashuvi uning ijodiy individualligini belgilovchi muhim estetik omil sifatida baholanadi.

KALIT SO‘ZLAR

Timsol, ramziylik, jadid adabiyoti, milliy uyg‘onish, ma‘rifatparvarlik, istiqloq g‘oyasi, lingvopoetik tahlil, badiiy obraz, ijtimoiy islohot.

Received: March 02, 2026**Accepted:** March 07, 2026**Available online:** May 10, 2026

³⁶ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Gulimmatova R. Abdurauf Fitrat ijodida timsol va ramziylik. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 2(10) — B. 310-318.

IMAGERY AND SYMBOLISM IN THE LITERARY WORKS OF ABDURAUUF FITRAT

Gulimmatova Rashida Samandar qizi

*Teacher of
Urgench State University named after
Abu Raykhan Beruni
Urgench, Uzbekistan*

E-mail: gulimmatovar@mail.ru

ORCID ID: 0009-0000-4335-5125

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of imagery and symbolism in the works of Abdurauf Fitrat from artistic-aesthetic and ideological perspectives. As a prominent representative of Jadid literature, Fitrat profoundly expressed the ideas of national awakening, independence, enlightenment, and social reform through symbolic images in his works. The study examines the system of images in his prose and dramatic works such as *“Abulfayzxon,”* *“The Story of the Indian Traveler,”* and *“Munozara,”* as well as in his poetic and journalistic heritage, based on semantic, linguopoetic, and contextual analysis. The organic connection of symbolic images with historical reality, their socio-political content, and their aesthetic function are identified. In particular, the article analyzes how the image of a declining state and society is created through a historical figure in the drama *“Abulfayzxon,”* and how the idea of enlightenment and awakening is conveyed through the travel motif in *“The Story of the Indian Traveler.”* In *“Munozara,”* the opposition between Eastern and Western thought is substantiated as being expressed through symbolic dialogue.

The symbolic layers of such images as historical figures, homeland, darkness and light, chain, path, and awakening are revealed. It is argued that in Fitrat’s works imagery functions not only as a means of artistic expression but also as an important ideological and aesthetic mechanism for conveying the author’s conceptual vision. In conclusion, Fitrat’s distinctive artistic approach to the use of images and symbols is evaluated as a significant aesthetic factor defining his creative individuality.

KEY WORDS

Image, symbolism, Jadid literature, national awakening, enlightenment, idea of independence, linguopoetic analysis, artistic image, social reforms.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ И СИМВОЛИКА В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУРАУФА ФИТРАТА

Гулимматова Рашида Самандаровна

Преподаватель

Ургенчский государственный университет

имени Абу Райхана Беруни

Ургенч, Узбекистан

E-mail: gulimmatovar@mail.ru

ORCID ID: 0009-0000-4335-5125

АННОТАЦИЯ

В данной статье комплексно, в единстве художественно-эстетического и идейного аспектов, рассматривается проблема образа и символики в творчестве Абдурауфа Фитрата. Фитрат, как выдающийся представитель джадидской литературы, в своих произведениях ярко выразил идеи национального возрождения, независимости, просвещения и социальных реформ посредством символических образов. В статье на основе семантического, лингвопоэтического и контекстуального анализа исследуется система образов в таких прозаических и драматических произведениях писателя, как «Абульфайзхан», «Повесть об индийском путешественнике», «Мунозара», а также в его поэтическом и публицистическом наследии, определяются органическая связь использованных символических образов с исторической действительностью, их социально-политическое содержание и эстетическая нагрузка. В частности, анализируется создание образа государства и общества, переживающих упадок, через фигуру исторической личности в драме «Абульфайзхан», а также раскрытие идеи просветительского возрождения через мотив путешествия в «Повести об индийском путешественнике». На основе анализа произведения «Мунозара» в статье прослеживается выражение противостояния восточного и западного мышления посредством символического диалога.

В исследовании раскрываются символические пласты таких образов, как исторические личности, родина, тьма и свет, цепь, путь и пробуждение. Обосновывается, что в творчестве Фитрата образ выступает не только как художественное изобразительное средство, но и как важный идейно-эстетический механизм выражения концепции автора. В заключении подчеркивается, что своеобразный художественный подход Фитрата к использованию образов и символов является важным эстетическим фактором, определяющим его творческую индивидуальность.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Образ, символизм, джадидская литература, национальное пробуждение, просветительство, идея независимости, лингвопоэтический анализ, художественный образ, социальные реформы.

KIRISH

Abdurauf Fitrat ijodida timsol va ramziylik ko‘pincha an‘anaviy badiiy bezak unsuri sifatida emas, balki milliy tafakkur va ijtimoiy ongning yangilovchi ramziy maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Adib asarlarida timsollar individning o‘zini anglash jarayoni, millatning tarixiy xotirasini qayta idrok etishi hamda ma‘rifiy uyg‘onish g‘oyalari ifodalovchi semantik mexanizm vazifasini bajaradi. XX asr boshlarida jadid adabiyotida ramziy obrazlarning faol qo‘llanilishi modern milliy ong shakllanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, Fitrat matnlarida ramzlar qatlamining tarixiy voqelik bilan badiiy tafakkur o‘rtasida vositachilik qilishi kuzatiladi (Komatsu H., 1996, 45). O‘zbek mumtoz adabiyotida timsol va ramz qadimiy tasavvufiy-estetik an‘ana asosida shakllangan bo‘lsa-da, jadid davriga kelib ular yangi ijtimoiy-g‘oyaviy mazmun kasb etdi. Xususan, “Abulfayzxon”, “Munozara”, “Hind sayyohi qissasi” kabi asarlarda tarixiy shaxs, zulmat va yorug‘lik, zanjir va ozodlik, vatan va g‘urbat singari obrazlar milliy uyg‘onish konsepsiyasining badiiy ifodasiga aylanadi. Shu nuqtada muhim ilmiy muammo yuzaga keladi: Fitrat asarlaridagi ramzlar qanday semantik-madaniy sharoitda shakllangan, ular qaysi poetik mexanizmlar orqali ijtimoiy mazmun kasb etgan va natijada ramzning funksiyasi an‘anaviy modeldan qanchalik transformatsiyaga uchragan? Mavzuning dolzarbligi ramzlarning tarixiy transformatsiyasi va jadid poetikasida ularning funksional yangilanishini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida Fitrat ijodi ko‘proq ma‘rifatparvarlik g‘oyalari yoki dramaturgik xususiyatlari doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning timsollar tizimi semantik va lingvopoetik jihatdan yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan (Yo‘ldoshev Q., 2018, 320). Masalan, “Abulfayzxon” dramasida tarixiy shaxs obrazi ko‘proq siyosiy-ijtimoiy tanazzul timsoli sifatida talqin qilinadi, ammo mazkur obrazning ramziy ko‘lamda milliy o‘zlik inqirozi va ma‘naviy parokandalikni ifodalash mexanizmi maxsus lingvopoetik tahlil asosida yetarli darajada ochib berilmagan (Fitrat A., 1996, 115). Xuddi shuningdek, “Munozara” asarida Sharq va G‘arb qarama-qarshiligi g‘oyaviy munozara sifatida baholanadi, biroq undagi dialogik struktura va obrazlar tizimining ramziy-semantik yuklamasi kompleks tahlilni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Abdurauf Fitrat asarlaridagi timsol va ramzlarning poetik funksiyalarini aniqlash hamda ularning milliy ong va ijtimoiy tafakkur shakllanishidagi o‘rnini nazariy hamda komparativ asosda tahlil qilishdan iboratdir.

ASOSIY QISM

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy ongning uyg‘onishi hamda adabiy

tafakkurning yangilanishida muhim tarixiy bosqichni boshlab berdi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati sharoitida shakllangan bu harakat jamiyatni modernizatsiya qilish, xalqni ma'rifat orqali taraqqiyot sari yo'naltirish va milliy o'zlikni saqlab qolish g'oyalarini ilgari surdi. "Jadidlar, avvalo, ta'lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini joriy etish, matbuotni rivojlantirish va milliy teatrni shakllantirish orqali ijtimoiy ongini o'zgartirishni maqsad qildilar" (Karimov N., 2008, 48).

Mazkur jarayon adabiyotda ham yangi g'oyaviy-estetik tamoyillarning yuzaga kelishiga olib keldi. Endilikda badiiy ijod shunchaki estetik zavq vositasi emas, balki millatni uyg'otuvchi, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi kuch sifatida talqin qilindi. Jadid adabiyoti milliy o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik, istiqloq va ozodlik g'oyalarini markazga qo'yib, adabiyotning ijtimoiy vazifasini tubdan yangiladi (Qosimov B., 2004, 21).

Jadid adabiyoti milliy o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik, istiqloq va ozodlik g'oyalarini markazga qo'yib, adabiyotning ijtimoiy vazifasini tubdan yangiladi. Ana shu tarixiy-ma'naviy jarayon jadid namoyandalarning ijodiy shakllanishida hal qiluvchi omil bo'ldi. Bu harakatning yetakchi vakillaridan biri sifatida Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat alohida o'rin egallaydi.

Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati jadidchilik g'oyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, u millat taqdirini ma'rifat va tafakkur yangilanishi orqali hal etish mumkin, degan qarashni ilgari surdi. Uning asarlarida milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy islohot va ma'naviy uyg'onish masalalari markaziy mavzuga aylanganligi bevosita jadid adabiyotining g'oyaviy-estetik tamoyillari bilan izohlanadi. Shu bois Fitrat shaxsiyati va ijodini jadidchilik harakatining mantiqiy davomi hamda badiiy ifodasi sifatida ko'rish mumkin.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886-yil Buxoroning ziyoli oilalaridan birida dunyoga kelgan. Shoir garchi o'smirlik yillaridagi ijodi namunalariga "Mijmar" (cho'g'don, xushboy) taxallusini bergan bo'lsa-da, 1908-yillardan boshlab *Fitrat* nomigabir umr sodiq qolgan. Davr tazyiqi kuchayib, uning zamondoshlari o'z asarlariga bir necha taxallus va laqablar bilan imzo chekishga majbur bo'lganlarida ham adib yolg'iz shu taxallusni qo'llagan. Hatto rasmiy idoralardagi xizmat chog'ida va xavfsizlik qo'mitasining hujjatlarida ham mana shu nom ba'zan familiya o'rnida qo'llanilgan (Boltaboyev H., 2022, 38). 1909-1913-yillar davomidagi Istanbuldagi tahsil olib, u yerdan jadidchilik harakatiga katta ta'sir qilgan yangi g'oyalar bilan qaytgan. O'zbekistonga qaytgach, u adabiyot, siyosat va ta'lim sohalarida faoliyat yuritadi va jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalardan biriga aylanadi. Fitrat turli janrlarda ijod qilgan. U o'z asarlarida milliy uyg'onish, din va jamiyat, ma'rifat va mustaqillik mavzulariga e'tibor

qaratgan. Shaytonning Tangriga isyoni (1919) — she'riy dramasi inson tafakkuri va ilohiy taqdir mavzularini yoritadi. Fitrat jadidchilik harakatining asoschilaridan biri sifatida o'zbek milliy uyg'onish harakatiga katta ta'sir ko'rsatgan. U eski madrasaviy ta'limni tanqid qilgan, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni o'rganish, milliy o'zlikni anglash va ma'rifatni rivojlantirish tarafdori bo'lgan. Uning asarlari o'z davrida katta shov-shuvga sabab bo'lgan.

Abdurauf Fitratning **“Shaytonning Tangriga isyoni”** asari adib ijodida muhim falsafiy-diniy yo'nalishni ifodalovchi asarlardan biri sanaladi. Unda inson, iroda, ezgulik va yovuzlik, ilohiy adolat kabi masalalar badiiy-falsafiy dialog shaklida talqin etiladi. Asarning yaratilish omillarini Fitratning dunyoqarashi, davr sharoiti va falsafiy manbalari bilan bog'liq holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, Fitrat XX asr boshlarida jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida diniy va falsafiy masalalarni chuqur o'rgangan mutafakkir edi. “Bu davr Turkistonda islohot g'oyalari, diniy tafakkurning yangilanishi hamda G'arb falsafiy qarashlarining kirib kelishi bilan xarakterlanadi” (Ashirov D., 2023, 28). Fitrat islomiy tasavvuf, Sharq mutafakkirlarining merosi va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy oqimlar ta'sirida inson va Tangri munosabatlarini yangicha talqinda ko'rsatishga intiladi.

Asarda Shayton va Tangri o'rtasidagi bahs orqali ezgulik va yovuzlik dialektikasi, inson tafakkuri va erkinligi, taqdir va iroda muammolari yoritiladi. Mazkur masalalar Sharq va G'arb falsafasida keng muhokama qilingan bo'lib, Fitrat ularni milliy-intellektual kontekstda qayta talqin etadi. Tasavvufiy manbalarda Shayton obrazi ba'zan ilohiy muhabbatning timsoli, ba'zan esa isyonkor ruh sifatida talqin qilinganligi ma'lum; asarda ushbu ramziy qatlamlar murakkab falsafiy dialog vositasida ochiladi. Asarning yaratilish davri — taxminan 1910-1920-yillar — Turkistonda mustamlakachilik siyosati, eski va yangi tafakkur to'qnashuvi, jadidchilik g'oyalarining kuchayishi bilan bog'liq. Bu ijtimoiy-falsafiy muhit Fitratning asarlarida tanqidiy ruh va yangicha qarashlarning shakllanishiga turtki bo'lgan. “Shaytonning Tangriga isyoni” ham ana shu intellektual keskinlik fonida yaratilgan. Janr jihatidan asar dialog shaklida yozilgan bo'lib, diniy-falsafiy bahs usuliga asoslanadi. Bu uslub Fitrat poetikasining muhim xususiyati sanaladi. Unda Shayton o'z e'tirozlarini bildiradi, inson taqdiri va ilohiy adolat masalasida fikr yuritadi, shu orqali muallif murakkab g'oyalarni ramziy ifoda vositasida ochib beradi.

Asarning keyingi taqdiri ham murakkab bo'lgan. Sovet davrida Fitrat “burjua millatchisi” va “kontrrevolyutsioner” sifatida baholanib, uning ko'plab asarlari singari mazkur asar ham tadqiq doirasidan chetda qoldi (Khalid A., 1998, 17). Faqat

XX asr oxiri va mustaqillikdan soʻng Fitrat merosi qayta nashr etilib, uning falsafiy-diniy qarashlari ilmiy muomalaga qayta kiritildi. Hozirgi kunda “Shaytonning Tangriga isyoni” Fitrat tafakkurini oʻrganishda muhim manbalardan biri sifatida eʼtirof etiladi.

Abdurauf Fitratning **“Yurt qaygʻusi”** sochma sheʼri ham jadid adabiyotining eng muhim publitsistik-lirik namunalariidan biri hisoblanadi. Ushbu sheʼrda shoir millatning ogʻir ahvoli, jaholat, mustamlakachilik zulmi va maʼnaviy tanazzuldan chuqur iztirob chekadi (Ayniy S., 2020, 25). Ulugʻ Turon, arslonlar oʻlkasi! Ushbu sheʼr, nafaqat turk xalqlarining tarixiy shon-sharafini aks ettiradi, balki ulkan madaniy meros va buyuk salohiyatni saqlash zaruratini ham oʻzida mujassam etadi. Sheʼrning muallifi, tarixiy oʻtmishdan ilhomlanib, oʻz xalqining oʻtmishdagi yuksakliklari va bugungi kunda yuzaga kelgan inqiroziga murojaat qiladi. Xalqning buyukligi va jasorati, oʻtmishdagi ulkan saltanatlar va ularning qulashiga sabab boʻlgan omillar orqali tanqid qilinadi. Muallif, Abdurauf Fitrat turk xalqlari tarixidagi buyuk shaxslar - Chingizxon, Temur va Oʻgʻuzlarni eslatib, ularning erishgan ulkan yutuqlariga nisbatan bugungi kunda bunday ulkan ishlar yoʻqolganini qayd etadi. Ammo sheʼrning asosiy xabari bu - xalqning oʻtmishdagi kuchi, maʼnaviy salohiyati va jasorati hech qachon yoʻqolmagan, balki u bugungi kunda yangi avlodlar orqali yana tiklanishi mumkin. Sheʼrda tarixning ulugʻvorlik va pasayish oʻrtasidagi inqiroziga, xalqning oʻzligini qayta tiklashga boʻlgan ehtiyojga urgʻu beriladi. Bu nafaqat bir millat, balki butun dunyo xalqlarining oʻz tarixini va madaniyatini saqlashdagi ahamiyatini anglashga chaqiradi. “Ulugʻ Turon” sheʼri, oʻtmishdagi buyuklikni eslatish orqali, yangi avlodga oʻz kelajagini yaratishda qanday yoʻnalishlarni tanlashi kerakligini koʻrsatadi.

Ulugʻ Turon, yaʼni turk xalqi, ularning tarixiy shon-sharafi va koʻrkli oʻtmishiga boʻlgan ehtiromni ifodalagan. Bu sheʼr, turk xalqi va ularning bir davrdagi gʻalabalariga, butun dunyodagi saltanatlariga chaqiruv va ularni qayta tiklashga daʼvat qilishi bilan diqqatni oʻziga jalb qiladi. Avtorni bunday jonli va kuchli chaqiriqlar bilan turk xalqi va ularning oʻtmishdagi sharafiga boʻlgan ishtiyoqini va ishonchiga olib kelganini koʻrish mumkin. Sheʼrda tilga olingan “Ulugʻ Turon”, “arslonlar oʻlkasi”, “Chingizlar”, “Temurlar”, “Oʻgʻuzlar” kabi tarixiy shaxslar va xalqlar, shuningdek, ular orasidagi ulkan madaniy meros, oʻtgan buyuklik va bugungi kunda yuzaga kelgan pasayish muammolari koʻtarilgan.

Sheʼrning tarixiy konteksti haqida soʻz borganda, jadidlar — bu XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston hududida rivojlanib, taʼlim, ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalarda islohotlarni amalga oshirishga intilgan intellektual va siyosiy guruhdir. Jadidchilik harakati, aslida, yangi, zamonaviy, “yangilanish” maʼnosini anglatadi. Ushbu harakat, oʻz navbatida, turk xalqlar

orasida milliy uygʻonish, ilm-fan va madaniyatga yangicha yondashuvlarni kiritishga qaratilgan edi.

Jadidchilik (arabcha “jadid” — yangi, yangilik) harakati XIX asrning oxirlarida va XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasining Turkiston viloyatlarida tashkil topgan. Bu harakatning asosiy maqsadi — oʻzbek, turkman, qozoq, tatar va boshqa turkey xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotini zamonaviylashtirish, din va ilm-fan sohasida islohotlar oʻtkazish va xalqni orqada qolishdan xalos etish edi. Jadidchilik, xususan, yangi, ilgʻor, zamonaviy taʼlim metodlariga tayanib, eski, anʼanaviy taʼlim tizimiga qarshi kurashgan. Ularning asosiy gʻoyasi — yoshlarni, ayniqsa, olim va yozuvchilarni ilm-fan bilan tanishtirish, xalqni yangicha fikrlashga oʻrgatish edi (Baldauf I., 2010, 17).

XULOSA

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilish yasab, milliy ong va adabiy tafakkur evolyutsiyasining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu harakat adabiyotning estetik vazifasini kengaytirib, uni millatni uygʻotuvchi, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi va maʼnaviy yangilanishni taʼminlovchi kuch sifatida talqin qildi. Jadid adabiyoti doirasida milliy oʻzlik, maʼrifat, istiqloq va ozodlik gʻoyalari markaziy oʻrin egalladi.

“Shaytonning Tangriga isyoni” asarida inson erkinligi, iroda va ilohiy adolat masalalari falsafiy-dialogik shaklda yoritilib, diniy ramzlar orqali zamonaviy tafakkur muammolari talqin etiladi. “Yurt qaygʻusi” sheʼrida esa milliy iztirob, tarixiy xotira va uygʻonish gʻoyasi publitsistik-lirik ohangda ifodalanadi. Shu tariqa, Fitrat ijodi jadid adabiyotining gʻoyaviy-estetik mohiyatini mujassamlashtirgan holda, milliy oʻzlikni anglash va maʼnaviy yangilanish jarayonining badiiy timsoliga aylanadi. Uning asarlari nafaqat oʻz davri uchun, balki bugungi kun milliy tafakkuri uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Ayniy, S. *Buxoro inqilobining tarixi* (nashrga tayyorlovchilar: Shimada Shizuo va Sharifa Tosheva). - Tokio: Tokio universiteti, Gumanitar va ijtimoiy fanlar oliy maktabi, Islomiy hududiy tadqiqotlar markazi 2010. (Asarning birinchi nashri 1926-yilda chop etilgan)
2. Ashirov, D. S. Jadidchilik harakati va uning Turkiston ijtimoiy-maʼnaviy hayotida oʻrni va ahamiyati. - Golden Brain, 2023. *1*(35), 23–28.
3. Baldauf, I. Jadidism in Central Asia within reformism and modernism in the Muslim world. - Die Welt des Islams, 2000. *41*(1), 72–88.

4. Baldauf, I. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. - Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2001.
5. Bazarbayeva, K. K., Gumadullayeva, A., & Rustambekova, M. Jadidism phenomenon in Central Asia. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 2013. 89, 876-881. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.08.948>
6. Fitrat, A. Tanlangan asarlar (1-jild). - Ma’naviyat, 1996.
7. Karimov, N. XX asr adabiyoti manzaralari (1-kitob). - Toshkent: O‘zbekiston, 2008. 534 b
8. Khalid, A. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. - University of California Press, 1998.
9. Komatsu, H. *Inqilobchi O‘rta Osiyo: Bir jadidning qiyofasi*. - Tokyo: ILCAA, 1996.
10. Qosimov, B. *Milliy uyg‘onish: jadidchilik harakati tarixi*. – Sharq, 2004.

REFERENCE:

1. Ayni, S. (2010). *The History of the Bukhara Revolution* (Prepared for publication by Shimada Shizuo & Sharifa Tosheva). Tokyo: The University of Tokyo, Graduate School of Humanities and Sociology, Research Center for Islamic Area Studies. (First published in 1926).
2. Ashirov, D. S. (2023). The Jadid movement and its role and significance in the socio-spiritual life of Turkestan. *Golden Brain*, 1(35), 23–28
3. Baldauf, I. (2001). *Outlines of 20th-Century Uzbek Literature*. Tashkent: Ma’naviyat Publishing House.
4. Baldauf, I. (2000). Jadidism in Central Asia within reformism and modernism in the Muslim world. *Die Welt des Islams*, 41(1), 72–88.
5. Bazarbayeva, K. K., Gumadullayeva, A., & Rustambekova, M. (2013). Jadidism phenomenon in Central Asia. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 89, 876–881. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.08.948>
6. Fitrat, A. (1996). *Selected Works* (Vol. 1). Tashkent: Ma’naviyat.
7. Karimov, N. (2008). *Panoramas of 20th-Century Literature* (Book 1). Tashkent: O‘zbekiston Publishing House.
8. Khalid, A. (1998). *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press
9. Komatsu, H. (1996). *Revolutionary Central Asia: The Portrait of a Jadid*. Tokyo: ILCAA.
10. Qosimov, B. (2004). *National Awakening: The History of the Jadid Movement*. Tashkent: Sharq Publishing House.